



**№3**

# **MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR**

**ILMIY ELEKTRON JURNALI**



**ISSN: 2181-3965**  
**VOLUME 5**  
**TOSHKENT 2026**

# “MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

**To‘lqin Zakirovich Teshabayev** – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI

**Mehmonov Sultonali Umaraliyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Karimova Komila Daniyarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sindarov Sherzod Egamberdiyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

**Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Pardayev Abdunabi Xoliqovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Kuziyev Islomjon Ne‘matovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich** – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Omonov Akrom Abdinazarovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Qongratbay Avezimbetovich** – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

**Jumayev Nodir Xosiyatovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

**Haydarov Nizomiddin Hamroyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Raviprakash G. Dani** – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

**Bagautdinova Nailya Gumerovna** – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

**Sharifzoda Mu‘min Mashokir** – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

**Maley Elena Borisovna** – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

**Asif Mahbub Karim** – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





**Piter Xayk** – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

**Yavuz Demirel** – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

**Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich** – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Ismanov Ibroxim Nabiyeovich** – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xayriddinov Azamat Botirovich** – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Tashnazarov Samiddin Nizamovich** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich** - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

**Yakubova Nargiz Tursunbayevna** – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Mamatov Baxadir Safaraliyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Qiyosov Sherzod Uralovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

#### JURNAL TAHRIRIYATI

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

**Avlokulov Anvar Ziyadullayevich** – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li** – mas‘ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Buxorova Moxira Samandarovna** – muharrir

*O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.*

**“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali**

23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №049864




**MUNDARIJA**

1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155





21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317





44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Muratbaevich	Salamat Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirmiyazov Sherniyazovich	Ajiniyaz Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Gapardjonovich	Eminjon Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Alimov Baxodirovich	Munisa, Ulug‘bek Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari	395
57.	Xamdamov Komilovich	Shavkat Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G‘anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Muzafarovna	Gulrux Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Akromovich	Davron Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari	451





## AHOLINI IJTIMOIOY HIMOYALASH MOLIYAVIY MEXANIZMI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

**Xamdamov Shavkat Komilovich**

*TDIU, “Moliya va moliyaviy texnologiyalar”  
kafedrasi professori, PhD  
ORCID: 0009-0009-0409-9670,  
E-mail: [shavkatkhamdamov17@gmail.com](mailto:shavkatkhamdamov17@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Maqolada aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari ishlab chiqilgan. Fiskal, statistik, ijtimoiy va institutsional yondashuvlar integratsiyasi orqali manzillilik, proaktivlik va institutsional muvofiqlik mezonlarini birlashtiruvchi integral baholash modeli taklif etilgan. Natija kambag'allikni qisqartirish siyosatini miqdoriy baholashning metodologik asosini yaratadi.

**Kalit so'zlar:** kambag'allik, ko'p o'lchovli kambag'allik, aholini ijtimoiy himoyalash, moliyaviy mexanizm, moliyalashtirish manbalari, manzillilik, proaktivlik, institutsional muvofiqlik, fiskal barqarorlik, samaradorlikni baholash, integral model, ijtimoiy transfertlar.

## ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО МЕХАНИЗМА СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ НАСЕЛЕНИЯ

**Хамдамов Шавкат Комилович**

*Профессор кафедры  
“Финансы и финансовые технологии” ТГЭУ, PhD  
ORCID: 0009-0009-0409-9670,  
E-mail: [shavkatkhamdamov17@gmail.com](mailto:shavkatkhamdamov17@gmail.com)*

**Аннотация.** В статье разработаны теоретико-методологические основы оценки эффективности финансового механизма социальной защиты населения. На основе интеграции фискального, статистического, социального и институционального подходов предложена интегральная модель оценки, объединяющая критерии адресности, проактивности и институциональной согласованности. Результат формирует методологическую базу количественной оценки политики сокращения бедности.

**Ключевые слова:** бедность, многомерная бедность, социальная защита, финансовый механизм, источники финансирования, адресность, проактивность, институциональная согласованность, фискальная устойчивость, оценка эффективности, интегральная модель, социальные трансферты.

## THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR ASSESSING THE EFFECTIVENESS OF THE SOCIAL PROTECTION FINANCIAL MECHANISM

**Khamdamov Shavkat Komilovich**

*Professor of the Department of  
“Finance and Financial Technologies” at TSUE, PhD  
ORCID: 0009-0009-0409-9670,  
E-mail: [shavkatkhamdamov17@gmail.com](mailto:shavkatkhamdamov17@gmail.com)*

**Abstract.** The article develops theoretical and methodological foundations for assessing social protection financial mechanism effectiveness. Integrating fiscal, statistical, social and institutional approaches, it proposes an integral assessment model combining targeting, proactivity and institutional coherence criteria. The result forms a methodological basis for quantitative poverty-reduction policy evaluation.

**Keywords:** poverty, multidimensional poverty, social protection, financial mechanism,





*financing sources, targeting, proactivity, institutional coherence, fiscal sustainability, effectiveness assessment, integral model, social transfers.*

### **Kirish**

Kambag'allikni qisqartirish ko'pincha davlatning ijtimoiy sohaga qancha mablag' ajratayotgani bilan o'lchanadi. Biroq ijtimoiy xarajatlar hajmining o'sishi o'z-o'zidan kambag'allik darajasining pasayishini kafolatlamaydi. Bir xil miqdordagi resurs turli mamlakatlarda yoki turli dasturlarda turlicha ijtimoiy natija berishi mumkin. Buning sababi shundaki, yakuniy natija mablag'ning miqdoriga emas, balki uning qanday shakllantirilishi, kimga va qaysi mezon asosida yo'naltirilishi hamda qanday nazorat qilinishiga bog'liq. Shu ma'noda kambag'allikni qisqartirish, avvalo, moliyaviy mexanizmning sifati masalasidir.

Zamonaviy ilmiy qarashlarda aholini ijtimoiy himoyalash passiv yordam emas, balki ijtimoiy xavf-xatarlarning iqtisodiy oqibatlarini boshqaruvchi tizim sifatida talqin qilinadi [1]. Bunday tizimning samaradorligi alohida nafaqa yoki xizmatning mavjudligi bilan emas, balki resurslarning safarbar etilishi, taqsimlanishi, ehtiyojmandga yetkazilishi va natijasining baholanishi qanchalik uyg'un kechishi bilan belgilanadi. Aynan shu jarayonlar yig'indisi moliyaviy mexanizmni ijtimoiy himoya tizimining markaziy bo'g'iniga aylantiradi. Mexanizm samarali ishlamas, yetarli moliyalashtirish sharoitida ham kambag'allikning chuqur sabablari bartaraf etilmaydi.

Moliyaviy mexanizmning sifati bir nechta o'zaro bog'liq talab orqali namoyon bo'ladi. Birinchisi manzillilik, ya'ni resurslarning haqiqatda muhtoj qatlamlarga yetib borishi. Yordam noto'g'ri guruhlariga oqib ketisa yoki ehtiyojmandlar tizimdan chetda qolsa, xarajat o'ssa ham, natija zaif bo'ladi [2]. Ikkinchisi shaffoflik, chunki taqsimlash jarayoni ochiq bo'lmasa, tizimga ishonch ham, uning natijadorligi ham pasayadi. Uchinchi moliyalashtirish manbalarining barqarorligi, zero uzilib qoladigan moliyalashtirish uzoq muddatli ijtimoiy kafolatlarni ta'minlay olmaydi. To'rtinchisi natijani baholash: ajratilgan har bir mablag' qanday ijtimoiy o'zgarish berayotgani o'lchanmasa, mexanizm o'zini-o'zi tuzata olmaydi.

Muammoning ilmiy jihati ushbu talablarni baholashga oid yondashuvlarning tarqoqligida ko'rinadi. Moliyaviy mexanizm samaradorligini o'lchashda fiskal, statistik, ijtimoiy va institutsional metodologiyalar mavjud, biroq ularning har biri mexanizmning faqat bitta qirrasini aks ettiradi. Manzillilik, natijadorlik va fiskal barqarorlikni bir vaqtda, yagona o'lchov asosida baholashga imkon beradigan integratsiyalashgan nazariy-metodologik ramka esa yetarlicha ishlab chiqilmagan. Bu bo'shliq moliyaviy resurslarni samarali boshqarish bo'yicha asoslangan qarorlar qabul qilishni qiyinlashtiradi va mazkur tadqiqotning zaruratini belgilaydi.

### **Adabiyotlar sharhi**

Kambag'allik va aholini ijtimoiy himoyalash masalalari xorijiy hamda mahalliy adabiyotda turli metodologik yondashuvlar asosida o'rganilgan. Mavjud tadqiqotlarni besh yo'nalishda umumlashtirish muammoning qaysi jihatlari yetarlicha ishlanganini va qaysilari ochiq qolganini ko'rsatadi.

Birinci yo'nalish kambag'allikni ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qilishga oid. Dastlabki tadqiqotlarda absolyut yondashuv ustuvor bo'lib, kambag'allik minimal iste'mol darajasidan past holat sifatida o'lchangan [3]. Bu yondashuv miqdoriy baholash va mamlakatlararo qiyoslash uchun qulay, biroq insonning ijtimoiy ishtiroki va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini hisobga olmaydi. Unga javoban P. Townsend nisbiy yondashuvni ilgari surdi: shaxs jamiyatda odatiy hisoblangan turmush tarzidan tizimli ravishda chetlatilganida ham kambag'al sanaladi [4]. A. Sen diqqatni daromaddan insonning asosiy funksiyalarni amalga oshira olish imkoniyatiga ko'chirib, imkoniyatlar yondashuvini asosladi [5]. Uning amaliy ifodasi sifatida ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi shakllandi, u ta'lim, sog'liqni saqlash va turmush sharoiti bo'yicha yashirin kambag'allikni aniqlash imkonini beradi [6].

Ushbu evolyutsiyaning metodologik ahamiyati shundaki, har bir yangi bosqich oldingisini inkor etmaydi, balki uning o'lchov chegarasini kengaytiradi. Natijada aholini ijtimoiy





himoyalashning vazifasi ham o‘zgaradi: u endi faqat daromad yetishmovchiligini qoplovchi vosita emas, balki imkoniyatlarni kengaytiruvchi va xavfni kamaytiruvchi institutga aylanadi. Aynan shu siljish moliyaviy mexanizmni transfert sifatida emas, ko‘p o‘lchovli natijaga yo‘naltirilgan tizim sifatida talqin qilishni taqozo etadi.

Ikkinchi yo‘nalish ijtimoiy himoyani qayta taqsimlash va ijtimoiy xavflarni kamaytirish instituti sifatida tahlil qiladi. Klassik iqtisodiy maktab davlat aralashuvini minimal darajada oqlagan, Keynes esa ijtimoiy transfertlarning yalpi talabni qo‘llab-quvvatlovchi makroiqtisodiy rolini asoslagan [7]. Welfare state nazariyasida bu bahs G. Esping-Andersen tipologiyasida tizimlashtirildi: liberal, konservativ-korporativ va sotsial-demokratik modellar qayta taqsimlash darajasi bilan farqlanadi [8]. S. Devereux va R. Sabates-Wheeler esa ijtimoiy himoyani himoya va kompensatsiya bilan cheklamasdan, uni tengsizlik sabablariga ta‘sir qiluvchi transformatsion institut sifatida talqin qildi [9]. Bu yondashuvlar o‘rtasidagi asosiy farq shundaki, ayrimlari ijtimoiy himoyani xavf oqibatini yumshatuvchi vosita deb qaraydi, boshqalari uni inson kapitalini rivojlantiruvchi mexanizm sifatida ko‘radi. Umumiy cheklov esa shundaki, bu modellar asosan rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayanadi va o‘tish davridagi gibrid tizimlarga to‘g‘ri dan-to‘g‘ri tatbiq etilmaydi.

Uchinchi yo‘nalish bevosita aholini ijtimoiy himoyalashning moliyaviy mexanizmiga qaratilgan. M. Cichon va hammualliflar ijtimoiy himoyani moliyalashtirishning manbalari, usullari va aktuar asoslarini tizimli yoritgan [1]. E. Schüring va M. Loewe ijtimoiy himoya tizimlarining tarkibiy dizaynini hamda turli instrumentlarning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qildi [10]. O. Cetrángolo o‘rta daromadli mamlakatlarda moliyalashtirish bo‘shlig‘i muammosini ko‘tarib, barqaror manbalar masalasini dolzarblashtirdi [11]. Ushbu adabiyot moliyalashtirishning alohida manbalari, ya‘ni byudjet, ijtimoiy sug‘urta va tashqi yordamni chuqur o‘rgangan. Biroq uning umumiy cheklovi shundaki, tadqiqotlar ko‘pincha bitta manba yoki instrument samaradorligiga e‘tibor qaratadi, manbalarni yagona koordinatsiyali tizimga bog‘lovchi model esa yetarlicha ishlanmagan.

To‘rtinchi yo‘nalish ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda manzillilik va universallik o‘rtasidagi bahsni qamrab oladi. A. Fiszbein, R. Kanbur va R. Yemtsov manzilli dasturlarning kambag‘allikni qisqartirishdagi global qonuniyatlarini tahlil qilib, cheklangan resurs sharoitida manzillilikning samaradorlik afzalligini ko‘rsatdi [2]. Universal yondashuv tarafdorlari esa, sotsial-demokratik modelga muvofiq, keng qamrov va past stigma ustunligini ta‘kidlaydi [8]. Bahsning mohiyati quyidagicha: manzillilik mablag‘ni aniq guruhga yo‘naltirib samaradorlikni oshiradi, lekin eksklyuziya xatosi va ma‘muriy murakkablik xavfini keltiradi; universallik qamrovni kafolatlaydi, biroq fiskal yukni oshiradi.

Beshinchi yo‘nalish ijtimoiy xarajatlar samaradorligini baholashga bag‘ishlangan. Adabiyotda to‘rt xil baholash an‘anasi shakllangan: fiskal tahlil ijtimoiy xarajatlarning makroiqtisodiy ta‘sirini, statistik tahlil qamrov va tengsizlikni, ijtimoiy tahlil inson kapitalidagi o‘zgarishlarni, institutsional tahlil esa tizim koordinatsiyasini o‘lchaydi. E. Mahembe va N. Odhiambo tashqi moliyaviy yordamning kambag‘allikka ta‘siri bo‘yicha adabiyotni umumlashtirib, baholash natijalari metodologiya tanloviga sezilarli bog‘liqligini ko‘rsatdi [12]. Bu yo‘nalishdagi asosiy muammo shundaki, har bir metodologiya mexanizmning faqat bitta qirrasini aks ettiradi va birorta yondashuv yolg‘iz o‘zida moliyaviy mexanizmni manzillilik, natijadorlik hamda fiskal barqarorlik bo‘yicha bir vaqtda baholay olmaydi.

Mahalliy iqtisodchilar D. A. Raxmonov [13], D. A. Sholdarov [14], M. X. G‘aniev [15], U. A. Vosiqov [16] va Sh. N. Xayitov [17] O‘zbekiston sharoitida kambag‘allikni qisqartirish hamda aholini ijtimoiy himoyalashni moliyalashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini o‘rgangan. Ularning tadqiqotlari ijtimoiy yordam va nafaqalarning tashkiliy-huquqiy asoslari, moliyalashtirish manbalari va amaliy mexanizmlarini ochib bergan [18]. Shunga qaramay, ijtimoiy yordam va ijtimoiy sug‘urta institutlarini yagona integratsiyalashgan moliyaviy mexanizm doirasida muvofiqlashtirib boshqarish hamda uning samaradorligini kompleks baholash modeli yetarlicha tadqiqot obyektiga aylanmagan. Adabiyotlar tahlilidan kelib chiqadigan umumiy xulosa





shuki, kambag'allik talqini, ijtimoiy himoya modellari, moliyalashtirish manbalari va baholash metodologiyalari alohida-alohida ishlab chiqilgan, ularni yagona nazariy-metodologik ramkada birlashtirish esa hal etilmagan ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda. Aynan shu bo'shliq maqolaning ilmiy o'rnini belgilaydi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqot nazariy-metodologik xarakterga ega: uning vazifasi yangi empirik ma'lumot olish emas, balki aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning yaxlit ramkasini asoslashdir. Shu maqsadga muvofiq sifatli-tahliliy metodlar majmuasi qo'llanildi. Tadqiqot ilmiy adabiyot, xalqaro tashkilotlarning metodologik hujjatlari va kontseptual manbalar tahliliga tayanadi, miqdoriy baholashga emas.

Birinchidan, tizimli yondashuv qo'llanildi. Unga ko'ra moliyaviy mexanizm alohida to'lovlar yig'indisi emas, balki moliyalashtirish manbalari, taqsimlash instrumentlari, boshqaruv va natijadorlikni o'zaro bog'lovchi yaxlit tizim sifatida ko'riladi. Bu yondashuv maqola predmetiga mos keladi, chunki tadqiqotning markaziy g'oyasi mexanizm elementlarini integratsiyalashgan tarzda baholashdir.

Ikkinchidan, qiyosiy tahlil metodi ishlatildi. U yordamida kambag'allikni talqin qiluvchi nazariy maktablar, ijtimoiy himoya modellari hamda baholashning fiskal, statistik, ijtimoiy va institutsional metodologiyalari o'zaro solishtirildi, ularning kuchli jihatlari va cheklovlari aniqlandi. Aynan qiyosiy tahlil natijasida to'rtta baholash metodologiyasini yagona modelga birlashtirish g'oyasi asoslandi.

Uchinchidan, institutsional-funksional tahlil orqali ijtimoiy himoyaning himoya, oldini olish, rivojlantirish va integratsiya funksiyalari hamda institutlarning o'zaro muvofiqligi o'rganildi. To'rtinchidan, mantiqiy umumlashtirish metodi yordamida tahlil natijalaridan moliyaviy mexanizm va uning samaradorlik mezonlariga oid muallif ta'riflari hamda xulosalar chiqarildi. Beshinchidan, tarkibiy tahlil metodi qo'llanilib, mexanizm moliyalashtirish manbalari, taqsimlash kanallari, oluvchilar, mezonlar va monitoring bloklariga ajratildi va har bir element samaradorlik mezoni nuqtai nazaridan ko'rib chiqildi.

### **Tahlil va natijalar**

Aholini ijtimoiy himoyalashning moliyaviy mexanizmi deganda davlat, xususiy sektor va xalqaro institutlarning moliyaviy resurslarini safarbar etish, taqsimlash va ulardan samarali foydalanish orqali aholini turli ijtimoiy-iqtisodiy risklardan himoya qilish, muhtoj va zaif qatlamlarni manzilli qo'llab-quvvatlash hamda ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan shakl, usul, vosita va instrumentlarning o'zaro bog'liq hamda uzviy tizimi tushuniladi. Mazkur mexanizm jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, kambag'allik darajasini kamaytirish, aholi farovonligini oshirish va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan u nafaqat moliyaviy resurslarni yig'ish va taqsimlash jarayoni, balki ijtimoiy siyosat maqsadlarini amalga oshirishning muhim institutsional vositasi sifatida namoyon bo'ladi.


Ushbu mexanizmning asosiy tarkibiy qismlariga moliyalashtirish manbalari, moliyaviy instrumentlar, taqsimlash mexanizmlari, boshqaruv institutlari va nazorat tizimlari kiradi. Moliyalashtirish manbalari sifatida davlat budjeti mablag'lari, davlat maqsadli jamg'armalari, ijtimoiy sug'urta badallari, korxonalar va tashkilotlarning ijtimoiy ajratmalari, xayriya mablag'lari, nodavlat notijorat tashkilotlari resurslari hamda xalqaro moliya institutlari va donor tashkilotlar grantlari xizmat qiladi. Ushbu mablag'lar pensiya ta'minoti, ijtimoiy nafaqalar, ishsizlik bo'yicha yordam, sog'liqni saqlash, ta'lim, uy-joy dasturlari va boshqa ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Moliyaviy mexanizmning muhim xususiyati uning manzillilik va samaradorlik tamoyillariga asoslanishidir.

Mexanizmning iqtisodiy mazmuni uning ijtimoiy himoya tizimidagi oraliq o'rni bilan belgilanadi. Ijtimoiy xavf yuzaga kelganda savol faqat kimga yordam berish bilan cheklanmaydi. Muhim savollar quyidagilar: xavf qaysi manba hisobidan moliyalashtiriladi, yordam qaysi mezon asosida ajratiladi, u qanchalik tez yetkaziladi va natijasi qanday baholanadi. Aynan shu savollarga





javob beruvchi bo‘g‘in moliyaviy mexanizmdir. Demak, ijtimoiy himoyaning kambag‘allikka ta‘siri dasturning mavjudligiga emas, balki resursning shakllanishi, taqsimlanishi va nazorati sifatiga bog‘liq bo‘ladi.



**1-rasm. Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmining tuzilmasi<sup>44</sup>**

Mexanizmni tahlil qilish uchun uni tarkibiy bosqichlarga ajratish zarur. Quyidagi rasm uning manbadan natijaga qadar bo‘lgan to‘rt bosqichli tuzilmasini umumlashtiradi.

1-rasmda ko‘rsatilganidek, birinchi bosqich resurslarni koordinatsiyali jalb etadi, ikkinchisi ularni manzilli instrumentlar orqali yetkazadi, uchinchisi tamoyillar yordamida to‘g‘ri yo‘naltirilishni ta‘minlaydi, to‘rtinchisi esa ijtimoiy natijani shakllantiradi. Bundan kelib chiqadigan metodologik xulosa shuki, mexanizm natijadorligi manbalar hajmi bilan emas, bosqichlar o‘rtasidagi uzilishsiz bog‘liqlik bilan belgilanadi: bir bosqichdagi zaiflik butun zanjir samaradorligini pasaytiradi. Masalan, moliyalashtirish manbalari barqaror bo‘lsa-da, oluvchilarni aniqlash zaif bo‘lsa, resurs muhtoj bo‘lmagan guruhlarga oqib ketadi; aksincha, manzillilik yuqori bo‘lsa-yu, manbalar beqaror bo‘lsa, tizim faqat qisqa muddatli yordam beradi.

Mazkur tahlil moliyaviy mexanizm sifatini belgilovchi uchta asosiy mezonni ajratishga imkon beradi. Manzillilik ehtiyojmand guruhlarni to‘g‘ri aniqlash va resurslarni aynan ularga yo‘naltirish qobiliyatidir; u inkluziya va eksklyuziya xatolari orqali o‘lchanadi. Proaktivlik yordamni fuqaro murojaatini kutmasdan, reyestrlar va idoralararo axborot orqali oldindan yetkazish qobiliyatidir. Institutsional muvofiqlik esa dasturlar, idoralar va moliyaviy oqimlarning yagona maqsad atrofida uyg‘unligidir. Fiskal barqarorlik bu uch mezonga teng to‘rtinchi mezon emas, balki ularning uzluksiz amal qilishini ta‘minlovchi tayanch shartdir [20; 21].

Bu mezonlarni o‘lchash uchun ularni aniq indikatorlarga bog‘lash zarur. Quyidagi jadval baholash bloklarini, mezonlarini va indikatorlarini umumlashtiradi.

<sup>44</sup> Muallif tomonidan shakllantirilgan.





1-jadval

Moliyaviy mexanizm samaradorligini baholash bloklari, mezonlari va indikatorlari<sup>45</sup>


Baholash bloki (indeks)	Bog‘liq sifat mezonlari	Asosiy indikatorlar	Mezon ta‘minlanmasligining oqibati
Fiskal samaradorlik (FSI)	Fiskal barqarorlik	Ijtimoiy xarajatlarning YaIMga nisbati, manbalar diversifikatsiyasi, rezerv yetarliligi	To‘lovlarning uzluksizligi buziladi
Qamrov va manzillilik (QMI)	Manzillilik	Inkluziya va eksklyuziya xatolari, qamrov koeffitsiyenti	Resurslar noto‘g‘ri guruhlarga yo‘naladi
Ijtimoiy natijadorlik (INI)	Natijadorlik	Kambag‘allik chuqurligi va zaiflik o‘zgarishi, inson kapitali ko‘rsatkichlari	Xarajatning ijtimoiy natijasi ko‘rinmaydi
Institutsional muvofiqlik (IMI)	Proaktivlik va muvofiqlik	Reyestrlar integratsiyasi, proaktiv to‘lovlar ulushi, idoralararo axborot almashinuvi	Fragmentatsiya va takroriy xarajat yuzaga keladi

1-jadval baholashning to‘rtta blokini sifat mezonlari va o‘lchanadigan indikatorlar bilan bog‘laydi. Uning metodologik qiymati shundaki, har bir blok mustaqil indikatorga ega, shuning uchun mexanizm samaradorligini yagona umumiy ko‘rsatkich bilan emas, faqat bloklar kombinatsiyasi orqali baholash mumkin. Oxirgi ustun esa har bir mezon ta‘minlanmaganda yuzaga keladigan aniq moliyaviy oqibatni ko‘rsatadi, bu baholashni mavhum tamoyildan amaliy diagnostika vositasiga aylantiradi.

Shu mantiqdan kelib chiqib, baholashning integral modeli taklif etiladi. Unda integral samaradorlik indeksi to‘rtta blokning vaznli yig‘indisi sifatida ifodalanadi:

$$ISI = \alpha \cdot FSI + \beta \cdot QMI + \gamma \cdot INI + \delta \cdot IMI \quad (1)$$

bu yerda FSI fiskal samaradorlik, QMI qamrov va manzillilik, INI ijtimoiy natijadorlik, IMI esa institutsional muvofiqlik indeksi;  $\alpha$ ,  $\beta$ ,  $\gamma$ ,  $\delta$  bloklarning vazn koeffitsiyentlari.



2-rasm. Moliyaviy mexanizm samaradorligini integral baholash modeli<sup>46</sup>


<sup>45</sup> Muallif tomonidan shakllantirilgan.

<sup>46</sup> Muallif tomonidan shakllantirilgan.





2-rasmda keltirilgan modelning ilmiy qiymati ikki jihatda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, u baholashni mablag‘ hajmi darajasidan resurslarning manzilliligi, natijadorligi va boshqaruv sifati darajasiga ko‘chiradi: asosiy savol qancha mablag‘ sarflandi degandan oilalar darajasida qanday natija berdi deganga aylanadi. Ikkinchidan, vazn koeffitsiyentlari milliy ustuvorliklarga muvofiq sozlanishi mumkin, bu esa modelni mexanik ko‘chirishdan saqlaydi. Ushbu bosqichda model nazariy ramka sifatida taqdim etiladi, koeffitsiyent va indeks qiymatlari esa keyingi empirik tahlilda haqiqiy ma‘lumotlar asosida aniqlanadi.



### 3-rasm. Kambag‘allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmini integral baholash metodologiyasi<sup>47</sup>

**Izoh:** *ISI* — integral samaradorlik indeksi; *FSI* — fiskal samaradorlik indeksi; *QMI* — qamrov va manzillilik indeksi; *INI* — ijtimoiy natijadorlik indeksi; *IMI* — institutsional muvofiqlik indeksi; *alpha, beta, gamma, delta* — baholash bloklarining vazn koeffitsiyentlari.

3-rasmda kambag‘allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmini baholashning integral modeli ifodalangan bo‘lib, model moliyaviy resurslarning shakllanishi va taqsimlanishidan boshlab, ijtimoiy yordam va xizmatlarning oilalar darajasidagi natijasigacha bo‘lgan jarayonni qamrab oladi. Baholash fiskal samaradorlik, qamrov va manzillilik, ijtimoiy natijadorlik hamda institutsional muvofiqlik bloklari asosida amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv moliyaviy mexanizm samaradorligini faqat xarajatlar hajmi bilan emas, balki ularning manzilliligi, natijadorligi va boshqaruv tizimi bilan bog‘liq holda kompleks baholash imkonini beradi.

O‘zbekiston sharoitida bu yondashuvni qo‘llash bir necha metodologik shartni talab qiladi, chunki mamlakat ijtimoiy himoya tizimi gibridd xarakterga ega: unda ijtimoiy yordam, ijtimoiy

<sup>47</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.





sugʻurta, kompensatsiya toʻlovlari, mahalla orqali qoʻllab-quvvatlash, raqamli reyestrlar va bandlik dasturlari bir vaqtda amal qiladi. Birinchidan, kambagʻallikni baholash koʻp oʻlchovli asosga oʻtkazilishi maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, model bloklarini milliy maʼlumotlar bilan bogʻlash uchun reyestrlar va idoralararo axborot tizimlari integratsiyasi zarur. Uchinchidan, vazn koeffitsiyentlari milliy ustuvorliklarga muvofiq asoslanishi kerak. Bu yoʻnalishlar amaliy islohot tavsiyalari emas, balki baholash ramkasini milliy maʼlumotlarda sinashga zamin yaratuvchi metodologik tayyorgarlikdir.

### **Xulosa**

Tadqiqot natijalari aholini ijtimoiy himoyalashning moliyaviy mexanizmi shunchaki toʻlovlar tizimi emasligini koʻrsatdi. U ijtimoiy xavf-xatarlarni boshqaruvchi yaxlit tizim boʻlib, ijtimoiy xavf bilan ijtimoiy natija oʻrtasida bogʻlovchi vazifani bajaradi. Shu bois ijtimoiy himoyaning kambagʻallikka taʼsiri dasturning mavjudligi bilan emas, balki resursning shakllanishi, taqsimlanishi, yetkazilishi va nazoratining sifati bilan belgilanadi.

Moliyaviy mexanizmni tarkibiy elementlarga ajratish uning natijadorligi eng zaif boʻgʻin bilan oʻlchanishini aniqladi. Moliyalashtirish manbalari, taqsimlash kanallari, oluvchilar, taqsimlash mezonlari va monitoringning har biri oʻziga xos samaradorlik mezoniga bogʻlangan. Demak, mexanizmni yagona umumiy koʻrsatkich bilan baholab boʻlmaydi, bu esa bir-birini toʻldiruvchi mezonlarni birlashtiruvchi integral yondashuv zaruratini asoslaydi.

Manzillilik fiskal barqarorlik bilan uzviy bogʻliq holda koʻrib chiqilishi kerak. Manzillilik, proaktivlik va institutsional muvofiqlik mexanizm sifatini belgilaydi, fiskal barqarorlik esa ularning uzluksiz amal qilishini taʼminlovchi tayanch shartdir. Barqaror manbalarsiz hatto aniq manzilli tizim ham faqat qisqa muddatli yordam bera oladi. Shu bois manzillilik va fiskal barqarorlik muqobil emas, oʻzaro shart boʻlgan tushunchalardir.

Samaradorlikni faqat xarajat hajmi orqali baholash yetarli emas. Taklif etilgan integral model fiskal samaradorlik, qamrov va manzillilik, ijtimoiy natijadorlik hamda institutsional muvofiqlik bloklarini yagona indeksga birlashtiradi va eʼtiborni xarajattan natijaga koʻchiradi.

Oʻzbekiston sharoiti uchun bu metodologiyani moslashtirish mexanik koʻchirishni emas, maqsadli tayyorgarlikni talab qiladi: kambagʻallikni koʻp oʻlchovli asosda operatsionallashtirish, model bloklarini milliy reyestrlar bilan bogʻlash va vazn koeffitsiyentlarini milliy ustuvorliklarga muvofiq asoslash.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Cichon M., Scholz W., van de Meerendonk A., Hagemeyer K., Bertranou F., Plamondon P. Financing Social Protection. Geneva: International Labour Office, 2004. 663 p.
2. Fiszbein A., Kanbur R., Yemtsov R. Social Protection and Poverty Reduction: Global Patterns and Some Targets // World Development. 2014. Vol. 61. P. 167–177.
3. Rowntree B.S. Poverty: A Study of Town Life. Centennial Edition. Bristol: Policy Press, 2000. P. 133–134.
4. Townsend P. Poverty in the United Kingdom: A Survey of Household Resources and Standards of Living. London: Penguin Books, 1979.
5. Sen A. Poverty and Famines: An Essay on Entitlement and Deprivation. Oxford: Oxford University Press, 1981.
6. Mitchell C. Multidimensional Poverty Index: presentation / Oxford Poverty & Human Development Initiative (OPHI), University of Oxford. Livingstone, Zambia, 8 July 2025.
7. Barr N. The Economics of the Welfare State. 5th ed. New York: Oxford University Press, 2012.
8. Esping-Andersen G. The Three Political Economies of the Welfare State // International Journal of Sociology. 1990. Vol. 20, No. 3. P. 92–123.
9. Devereux S., Sabates-Wheeler R. Transformative Social Protection. IDS Working Paper No. 232. Brighton: Institute of Development Studies, 2004.





10. Schüring E., Loewe M. Handbook on Social Protection Systems. Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2021. 743 p.
11. Cetrángolo O. Closing the Global Financing Gap in Social Protection: A Middle-Income Countries' Perspective // Global Social Policy. 2024. Vol. 25, No. 2. P. 363–365.
12. Mahembe E., Odhiambo N.M. Foreign Aid and Poverty Reduction: A Review of International Literature // Cogent Social Sciences. 2019. Vol. 5, No. 1.
13. Raxmonov D.A. O‘zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) diss. avtoreferati. Toshkent, 2018. 70 b.
14. Sholdarov D.A. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirishning konseptual asoslari: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) diss. avtoreferati. Toshkent, 2024. 75 b.
15. G‘aniev M.X. Innovatsion iqtisodiyotning shakllanish sharoitida aholi farovonligini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishlari: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) diss. avtoreferati. Toshkent, 2023. 36 b.
16. Vosiqov U.A. Aholi daromadlari tabaqalanishi va kambag‘allikni qisqartirishda fiskal siyosatdan foydalanish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) diss. avtoreferati. Toshkent, 2025. 75 b.
17. Xayitov Sh.N. Kambag‘allikni qisqartirish asosida aholi bandligi va farovonlik darajasini oshirish metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) diss. avtoreferati. Toshkent, 2025. 70 b.
18. Vaxabov A.V. va boshq. Ijtimoiy siyosat: o‘quv qo‘llanma. Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2019. 312 b.
19. World Bank. June 2025 Update to Global Poverty Lines: Factsheet. Washington: World Bank, 2025.
20. Khamdamov Sh.K. Social protection and poverty alleviation: financing strategies and comparative practices in developed and developing countries. (2024). Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(04), 264-270.
21. Nurmuhamedova B.I. Ijtimoiy himoya sohasini moliyaviy ta‘minlashning tashkiliy-huquqiy asoslari. “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali, 2025-yil, I-son. <https://zenodo.org/records/15021781>

